

Aminov Zarif Yusupovich - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi,
iqtisod fanlari nomzodi

IQTISODIY XAVFSIZLIKKA OID ATAMALAR

TA'RIFLARI MAZMUNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada xavfsizlik va unga aloqador bo'lgan tushunchalarning ta'riflari berilgan. Xavfsizlik masalasi juda keng tushuncha. Chunki uning qamrovi siyosiy, iqtisodiy, ekologik, harbiy kabi xavfsizliklarni qamrab oladi. Bu o'ta murakkab jarayon, chunki keltirilgan xavfsizlikka taalluqli tushunchalarning birortasi ta'minlanmasa, jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishib bo'lmazligi aniq.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, zarar, foyda, axborot, ob'ekt, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, davlat, atama, ta'rif, tovarning iste'mol xavfsizligi, ob'ekt xavfsizligi.

Аминов Зариф Юсупович – преподаватель Самаркандского института
экономики и сервиса, кандидат экономических наук

УСЛОВИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТЬЮ

СОДЕРЖАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЙ

Аннотация: В этой статье приведены определения безопасности и связанных с ней концепций. Безопасность – очень широкое понятие. Потому что в его сферу входит политическая, экономическая, экологическая, военная безопасность. Это очень сложный процесс, поскольку очевидно, что устойчивое развитие общества не может быть достигнуто, если не обеспечена ни одна из концепций, связанных с безопасностью.

Ключевые слова: безопасность, экономическая безопасность, ущерб, прибыль, информация, объект, субъекты хозяйствования, состояние, термин, определение, потребительская безопасность товара, безопасность объекта.

Aminov Zarif Yusupovich - teacher of the Samarkand Institute of Economics and Service, candidate of economic sciences

TERMS RELATED TO ECONOMIC SECURITY

CONTENTS OF DEFINITIONS

Abstract: This article provides definitions of security and related concepts. Security is a very broad concept. Because its coverage includes political, economic, ecological, military security. This is a very complex process, because it is clear that sustainable development of society cannot be achieved if any of the concepts related to security are not provided.

Key words: safety, economic safety, damage, profit, information, object, business entities, state, term, definition, consumer safety of goods, object safety.

Kirish. Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonaning o‘ziga xos tijorat, ishlab chiqarish va boshqa sirlari bo‘ladi¹. Ularning saqlanishi ham mazkur xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt uchun intellektual yoki nomoddiy mulk sifatida katta ahamiyatga ega. Korxonaning zamonaviy xodimlari ushbu sirlarni oshkor qilmasliklari lozim. Bu sirni oshkor qilish asosan axborotlar orqali amalga oshiriladi. Shu tufayli hozirgi sharoitda axborot xavfsizligini ta‘minlash ham muhim tadbirlardan biriga aylandi².

Tahlil va natijalar. Bozor munosabatlari sharoitida har bir ob‘ektning³ xavfsizligi ta‘minlangan bo‘lishi lozim. Buning uchun ob‘ekt xavfsizligining

¹Nematovich K. A., Abdurahmonovich B. F. FORMS OF COMPETITION AND A SYSTEM OF INDICATORS REPRESENTING COMPETITIVENESS //International journal of trends in commerce and economics. – 2021. – T. 11. – №. 1.

²Ortikniyozovich U. F. The Significance of Theoretical Concepts of Services and Service Activity //American Journal of Economics and Business Management. – 2022. – T. 5. – №. 6. – C. 43-45.

³“Ob‘yekt” deganda bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko‘rsatayotdan iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan va ega bo‘lmagan barcha xo‘jalik yurituvchilarni ko‘zda tutmoqdamiz.

ta'rifini ishlab chiqish ham lozim bo'ladi. Ammo, iqtisodiy adabiyotlarda bunday ta'rif yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi tufayli biz unga ham o'z qarashlarimizdan kelib chiqdik: **Ob'yekt xavfsizligi deganda turli tahdidlar va xavf-xatarlardan himoyalangan va o'z faoliyatini normal rejimda olib borishga tegishli sharoit yaratib olishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga ega bo'lgan ob'ektlar tushuniladi.**

Biz ushbu holatda butun bir iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ob'ektlarning xavfsizligi xususida gap yuritmoqdamiz. Bu esa iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi ob'ektlarning xavfsizligiga alohida ahamiyat berishni taqozo qiladi. Ularning biri, ya'ni eng muhimi ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) ob'ektidir.

Iqtisodiy xavfsizlik xususida fikr yuritar ekanmiz, uning asosiy qismini tashkil qiladigan ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) ob'ektlari xavfsizligi xususida ham alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Bunga biz iqtisodiy xavfsizlik tushunchalari ta'rif-lariga tayangan holda, quyidagicha ta'rif berishni lozim deb topdik.

Ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) ob'ektining xavfsizligi deganda shaxs va jamiyatning manfaatlariga mos kelmaydigan turli ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan halokatlarning (avariyalarning) oldini olishga qaratilgan tadbirlar majmuasining mavjudligi tushuniladi.

Jamiyatimizdagi holatlar iqtisodiy xavfsizlik qatoriga yong'in xavfsizligini ham qo'shishni taqozo qilmoqda. Chunki har xil ehtiyotsizliklar oqibatida yuzlab yong'in hodisalari ro'y bermoqda. Natijada bir qator ob'ektlarda millionlab so'm miqdorida moddiy zarar ko'rilmogda. Shu tufayli ushbu masala ham iqtisodiy xavfsizlikning bir turi sifatida o'z ta'rifiga ega bo'lishi lozim. Biz yuqorida keltirilgan ta'riflarga qo'yilgan talablardan kelib chiqib, yong'in xavfsizligiga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb topdik: **Yong'in xavfsizligi deganda uning oldini olishga qaratilgan barcha tadbirlarning me'yor darajasida amalga oshirilgan tadbirlar majmui tushuniladi.**

Iqtisodiy va ijtimoiy hayotda yong'in xavfsizligini ta'minlamas ekanmiz, korxonaning umumiy xavfsizligini, shu jumladan iqtisodiy xavfsizligini to'liq ta'minladik, deyish qiyin. Shu tufayli ushbu masalaga ham alohida ahamiyat berish lozimdir.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning nufuzi bevosita uning tovariga va mahsulotiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki iste'molchiga sifatli va arzon tovarlar hamisha kerak bo'lgan va bugungi kunda ham bu holat o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Qachonki har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z tovarining xavfsizligini ta'minlamas ekan, uning xaridorini topib bo'lmaydi. Bu esa uni iqtisodiy jihatdan nochor ahvolga olib kelishi mumkin. Bu holatdan ham ko'rinib turibdiki, har bir korxonada o'zining tovarining xavfsizligini ta'minlashi lozim ekan. Buning mazmunini nazariy jihatdan to'liq ifodalash esa uning ta'rifini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Biz tovarning iste'mol xavfsizligiga ta'rif berishda quyidagi ta'rifga asoslanish maqsadga muvofiq, degan fikrga keldik: **Tovarning iste'mol xavfsizligi deganda uni iste'mol qilayotgan inson hayoti va mulking xavfsizligi ta'minlangan va har qanday holatda zarar qilmasligi kafolatlangan bo'lishi tushuniladi.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nematovich K. A., Abdurahmonovich B. F. FORMS OF COMPETITION AND A SYSTEM OF INDICATORS REPRESENTING COMPETITIVENESS //International journal of trends in commerce and economics. – 2021. – T. 11. – №. 1.
2. Ortikniyozovich U. F. The Significance of Theoretical Concepts of Services and Service Activity //American Journal of Economics and Business Management. – 2022. – T. 5. – №. 6. – S. 43-45.
3. **Ortikniyozovich, U. F. . (2023). ISSUES OF FINANCING THE HEALTHCARE SYSTEM IN MODERN CONDITIONS. Horizon:**

- Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 72–73. Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/horizon/article/view/1366>**
- 4. Ortikniyozovich, U. F. (2023). Health Care System in Our Country Development. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(5), 56–57. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/176>**